
"Fuqarolik va oila huquqi" darsligi chop etildi

O'zR FA Davlat va huquq instituti olimlari Ichki ishlar akademiyasi Jamoat xavfsizligi universiteti professor-o'qituvchilari bilan hamkorlikda "Fuqarolik va oila huquqi" darsligini chop etdilar.



Mazkur darslikda fuqarolik huquqi va uning ichki ishlar organlari faoliyatida ahamiyati, fuqarolik huquqining subyektlari va obyektlari, ichki ishlar organlari fuqarolik huquqining alohida subyekti sifatida, bitimlar va vakillik, ichki ishlar organlari faoliyatida bitim va vakillikning qo’llanilishi, fuqarolik huquqida muddatlar va da’vo muddati, mulk huquqi, mulk huquqini himoya qilish usullari, ichki ishlar organlarining mulk huquqi,

majburiyat huquqi, ichki ishlar organlari majburiyat munosabatlarining subyekti sifatida, shartnoma to’g’risida umumiy qoidalar, oldi-sotdi, ayirboshlash, hadya shartnomalari, ichki ishlar organlari faoliyatida shartnomaviy munosabatlar, mulk ijarasi, qarz va kredit shartnomalari, sug’urta va uning ichki ishlar organlari faoliyatida tutgan o’rni, zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlar va unda ichki ishlar organlarining ishtiroki, intellektual mulk, vorislik huquqi, oila huquqi va ichki ishlar organlari faoliyatida tutgan o’rni, ota-ona qaramog’idan mahrum bo’lgan bolalarni joylashtirish va unda ichki ishlar organlarining vazifalari, fuqarolik holati dalolatnomalari va ularni qayd etish kabi masalalari atroflicha yoritilgan.

IIV akademiyasining kursant (tinglovchi)lari va professor-o’qituvchilariga, huquqni muhofaza qilish idoralarining amaliyotchi xodimlariga hamda fuqarolik huquq masalalari bilan qiziquvchi barcha kitobxonlar ommasiga mo’ljallangan.